

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon universiteti direktori

PhD, i.f.n. G‘. Zaxidov

“10” yanvar 2024-yil

**08.00.15 – “TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES” IXTISOSLIGI
BO‘YICHA DOKTORANTURAGA KIRUVCHILAR UCHUN**

DASTUR

Qo‘qon – 2024

Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası tomonidan ishlab
chiqildi

Tuzuvchilar:

G'.Zaxidov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası dotsenti (PhD)
Sh.Ruziyev	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası dotsenti (PhD)
A.Islamov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası dotsenti (PhD)
H.Rasulov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası mudiri

Taqrizchilar:

M.Najmiddinov	Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti dekani
H.Rasulov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası mudiri

Ushbu dastur Qo'qon universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan
(2023 - yil "12" 11 dagi 2 - sonli bayonnomasi)

Kirish

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan mutaxassislarining kasbiy mahoratini ko'tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yilda chop etilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida xalqimizning ishonchi va orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish" alohida belgilab berilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli beqiyosdir.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati to'g'risida so'z yuritganda, "mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rni ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu boisdan ham agar biz iqtisodiyotimizni, ijtimoiy sohani yanada yuksaltiramiz desak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur"

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi xalqaro andozalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holatidan va chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotidan kelib chiqadi.

Dasturga qo'yilgan mavzular 08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti” ixtisosligi bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga da'vogarlarining faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab qiladi.

Mazkur masalalar bo'yicha nazariy muammolar fan doktorligiga da'vogarlarining shaxsiy qarashlarini shakllanishini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Dastur 08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti” ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

“Tadbirkorlik va kichik biznes” ixtisosligi bo‘yicha mavzular mazmuni

№	Fan bo‘lim mavzulari	Bo‘lim mazmuni
1	Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni	O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-fevralda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-sonli Qonuni. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o‘rni. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishi.
2	Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari	O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-fevralda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-sonli Qonunida belgilab berilgan tadbirkorlik turlari. Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Innovatsion tadbirkorlik. Ilmiy texnik tadbirkorlik. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik. Tijorat tadbirkorligi. Moliyaviy tadbirkorlik. Maslahat tadbirkorligi. Maslahat xizmatlari. Tadbirkorlik shakllari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik. Xususiy tadbirkorlik. Jamoa tadbirkorligi. Firmalar. Ma’suliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar. Aksiyadorlik jamiyati. Korporatsiya. Xolding kompaniya. Davlat korxonalari. Konsern. Konsortsium. Kooperativ. Kartel. Sindikat. Venchur korxonalar. Ijara korxonalar. Injiniring korxonalar.
3	Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish	O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-aprelda qabul qilingan “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-327-sonli Qonuni. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi. Kichik biznes

		subyektlarini bank, soliq va moliya muassasalaridan ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur hujjatlar, ularning mazmuni. Kichik biznes subyektlarining bankrotliligi. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qayta tashkil etish va yopish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya berish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya beruvchi tashkilotlar. Litsenziya berish muddatlari. Litsenziyani bekor qilish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarish usullari va qarorlar qabul qilish jarayoni.
4	Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini tashkil etish	Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketingning ahamiyati. Marketing – biznes falsafasi. Marketingning boshqaruv funksiyasi. Bozorni tanlash. Tadbirkorlik faoliyatida bozor segmentatsiyasining ahamiyati. Bozor segmentatsiyasining xususiyatlari. Bozorni segmentlashni tashkil etish. Bozordagi maqsadli segmentni tanlash. Bozor imkoniyatlarida biznesdagi kuchli tomonlarning muvofiqligi. Tovarning hayotiylik davri. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida reklama faoliyatini tashkil etish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun marketing dasturini ishlab chiqish.
5	Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish	Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes-rejaning ahamiyati. Biznes-rejaning mohiyati, mazmuni va tuzish zaruriyati. Biznes-rejaning asosiy bo'limlari. Biznes-rejani bajarilishini nazorat qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish.

		Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini operativ va strategik tahlil qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyati samaradorligi tahlili.
6	Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan muloqot uchrashuvida, "Tadbirkorlik faoliyatini infratuzilma bilan ta'minlash yo'nalishida"gi masalalar. Infratuzilmaning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari. Brokerlik idoralari, ulgurji va chakana savdo tuzilmalari, lizing, konsalting va sug'urta kompaniyalari, bojxona xizmati, axborot – maslahat markazlari, injinering va auditorlik firmalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan muloqot uchrashuvida, "Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasi va kreditlarning maqbul foiz stavkalarini shakllantirish yo'nalishida" qanday masalalar o'z ifodasini topdi. O'zbekistonning bank-moliya tizimi. Bank-moliya sohasidagi o'zgarishlar. Banklarning asosiy operatsiyalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli. Banklardan kredit berish tartibi. O'zbekistonda soliq tizimi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq turlari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan soliq olish qoidalari va soliq imtiyozlari.
7	Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida ishlab	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish,

	chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlili	biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6314-sonli Farmoni. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati tarkibi va elementlari. Kichik biznes subyektlarning ishlab chiqarish, sotish va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarish xarajatlari. Noishlab chiqarish xarajatlari. Ichki xarajatlar. Tashqi xarajatlar. Doimiy xarajatlar. O‘zgaruvchan xarajatlar. Bevosita xarajatlar. Bilvosita xarajatlar. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar. Davr xarajatlari. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar. Favqulotda zararlar. Mahsulotni tannarxi va uni hisoblash usullari. Mahsulot tannarxini pasaytirish yo‘llari.
8	Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati tahlili	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentyabrdagi “Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6307-sonli Farmoni. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati ko‘rsatkichlari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining asosiy moliyaviy hujjatlari. Balans. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatini tahlil qilish. Moliyaviy tahlilning turlari va ularni o‘tkazish uslublari. Kichik biznes va tadbirkorlikda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati, maqsadi va asosiy ko‘rsatkichlari. Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari. Kichik biznes subyektlarini kredit bilan ta’minlash shakllari. Kredit turlari. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning boshqa manbalari va ulardan samarali foydalanish. Yalpi daromad va foyda. Foydaning turlari. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida foyda turlarini tahlil qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida rentabellik darajasini hisoblash usullari.

9	Tadbirkorlik etikasi va madaniyati	Tadbirkor rahbar etikasi. Tadbirkor rahbarning etika kodeksi. O'ziga jalb qilish imidji. Tadbirkor rahbar faoliyatining ruhiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor rahbar etiketi. Suxbatlashish, tanishish hamda so'rashish normasi. Ish kontraktlarini tashkil qilish. Ish suhbatlarini olib borish. Ish qog'ozlarini yozish. Telefonda gaplashish madaniyati. Ish protokoli va hisoboti. Tadbirkor rahbarning nutq madaniyati va uning ruhiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor rahbarning tashqi ko'rinishi va o'zini tutishi. Tadbirkor rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar. Tadbirkor rahbar faoliyatida mojaroli holatlar va ularni hal etish usullari.
10	Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash	Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida eksportning hozirgi holati va tahlili. Eksportyor korxonalarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Eksportyor korxonalarga yaratilgan shart-sharoitlar va imtiyozlar. Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Kichik biznes korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Xorijda o'zbek savdo uylarini tashkil etish. Eksport ko'rsatkichlarini hisoblash usullari.
11	Korxonalarning tashqi muhitini tahlil qilish	Makromuhit tuzilmasi. Bozor yoki segmentda uzoq muddatli foyda olishdagi ichki yoqimlilikni aniqlovchi M.Porterning beshta raqobat kuchlari: raqobatchilar, tovar o'rnini bosuvchi mahsulotlar, yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, bozorning salohiyatli ishtirokchilari. Intensiv raqobatchilik xavfi. Tijorat kurashida xarajatlar qiymatini kamaytiruvchi to'siqlar. Yangi ishtirokchilarning paydo bo'lish xavfi. Yoqimli segmentning kirish va undan chiqishdagi to'siqlari. Har tomonlama yuqori to'sikli strategiyalar. Yangi texnologiya va mahsulotlar monitoringi. Yetkazib beruvchilarning bozordagi hukmronligining kuchayish xavfi. O'ziga jalb qilmaydigan segment. Yetkazib beruvchilar kuchi, darajani va kontsentratsiyani ortishi (o'sishi),

		o'rni bosuvchi mahsulotlar safining kamayishi. Himoyalash strategiyasi. Strategiyani amalga oshirish uchun zaruriy bozor sharoitlari va xatarlari.
12	Kichik korxonalarning ichki muhitini tahlil qilish	Iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifalari va unda qo'llaniladigan usullar. Korxona faoliyatining SWOT – tahlil usuli. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlar va ularning tarkibi. Kam xarajatlar orqali raqobat ustunliklariga erishish. Mahsulot tannarxidagi tarkiblarning farqlanishi: keng ko'lamli ishlab chiqarish yo'li orqali tejamkorlikka erishish, o'qitish orqali tejamkorlikka erishish ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulotlar konstruksiyasi, tarmoqqa kirishdagi xarajatlar, tashkiliy omillar. Xarajatlarni kamaytirish orqali raqobat ustunlikka erishish. Mahsulotning differentsiatsiyasi: tovar differentsiatsiyasi, xodimlar differentsiatsiyasi, imidj va xizmat ko'rsatish differentsiatsiyasi. Mahsulot differentsiatsiyasining imkoniyatlari. Fokuslashish strategiyalari. Farqalanuvchi qobiliyatlar tushunchasi. Qiymat zanjiri: birlamchi va ikkilamchi faoliyatlar tahlili.
13	Biznes-g'oya tahlilini metodik asoslari	Strategik biznes rejalashtirishning mohiyati. Missiya o'rniga biznes- g'oya. Bozor ehtiyoji. Ichki qobiliyat. Taraqqiyot imkoniyatlari. Biznes sharti. qobiliyatlarga misollar. Institutsional bilim. Ichki jarayonlar. Ishonch va obro'-e'tibor. Himoyalash qonun qoidalari. Strategik rejalashtirish yangilashish va transformatsiyalash jarayoni sifatida. Biznes-g'oya, biznesning farqlanadigan jihatlari, strategik tahlil, rejalashtirish, biznes g'oyaning tarkibiy qismlari (bozorning ehtiyojlari, korxonaning ichki jihatlari, korxona jihatlarning rivojlanish imkoniyatlari, biznes sharoitlari). Ehtiyoj va talabning tuzilishi. Xususiy sarmoya tuzilmasi. Yaderli foydalilik. Konsultatsion mahsulot. Biznes soha chegaralarini aniqlash. Xususiy imkoniyatlar va qobiliyatlarni tashkillashtirishning tahlili. Tashkilot shaxsiy sarmoyasini tahlil qilish. Ishbilarmonlik xavfini

		hisobga olgan holda biznes soha ko'lamini aniqlashtirish. Biznes-g'oyani shakllantirish.
14	Diversifikatsiya va integratsiya	Diversifikatsiya turlari. Oldinga va orqaga integratsiya. Birlashuvlarning asosiy shakllari. Yutilish va qo'shilishlar. Internatsionalizatsiya. Kirish va chiqishdagi to'siqlar. Biznesning strategik sohasi. Konglomeratsiya va sinergizm mezonlari. Ishlab chiqarish zanjiridagi bo'shliqlar. Xavfning pasayishi, diversifikatsiyalashgan korxonalar, Diversifikatsiyaning afzalliklari va kamchiliklari. Strategik alyanslar. Qo'shma korxonalar. Chet bozorlarga chiqish usullari: eksport, franchayzing, qo'shma korxona, to'laligicha xorijiy kapital evaziga tuzilgan korxona. Uzoq va qisqa muddatli strategik shartnomalar. Global strategiya turlari: global, xalqaro, multimilliy va transmilliy strategiyalar.
15	Bozor ulushi va o'sish sur'atini taqqoslash: Boston konsalting guruhi (BCG) modeli	Boston konsalting guruhi (BCG) modelining kelib chiqish tarixi. BCG modelining tuzilishi. Tajriba samarasi va mahsulotning hayot sikli modeliga asoslangan BCG modelining ikki gipotezasi. BCG matritsa segmentatsiyasi. Yulduzlar, sog'iluvchi sigirlar, muammo tug'diruvchi bolalar, itlar. Firmaning biznes soha xarakteristikasi. Har xil moliyaviy ehtiyojlar va strategik maqsadlarga asoslangan bozorning to'rt guruhi. Rendi firmasining choy bozoridagi faoliyati. Rendi firmasi biznes sohasining BCG modeli. BCG modelining kuchli va zaif tomonlari. Bozorning nisbiy ulushi. BCG modelining asosiy kamchiliklari. BCG modelida foydalanilgan o'zgaruvchilar. Boston matritsasidagi foyda, naqd pul oqimi va muayyan strategiyalar bo'yicha takliflar. BCG modelining modifikatsiyalashgan matritsasi. BCG modelining modifikatsiyalashgan matritsada qo'llaniladigan kriteriyalar: raqobatli ustunliklarning hajmi, raqobatli ustunliklarni ro'yobga chiqarish usullarining miqdori.

16	Bozorning raqobatbardoshligini va yoqimlilikini taqqoslash: Mak Kinsey (GE/Mc Kinsey) modeli	Mak Kinsey (GE/Mc Kinsey) modelining kelib chiqish tarixi. GE/Mc Kinsey modelining tuzilishi. GE/Mc Kinsey modeli matritsasining tuzilishi. Strategik holatlar sohasi. G'oliblar sohasi, yutqazganlar sohasi va o'rtadagi sohalar. Biznesni o'rtacha holati va biznesni ishonchsiz turlari. GE/Mc Kinsey modelini kuchli va zaif tomonlari. GE/Mc Kinsey modelida qo'llaniladigan bozor yoqimlilik va kompaniyani kuchli tomonini xarakterlovchi o'zgaruvchilar. Bozorning yoqimlilik va biznesning strategik holatidagi omillar. Bozorning (tarmoqning, raqobatchilik omillari, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik omillar) xarakteristikasi. GE/Mc Kinsey modeli variatsiyasi. Dey tomonidan taklif qilingan GE/Mc Kinsey modelini variatsiyasi. O'ziga jalb etuvchi bizneslar. Raqobat holatining kuchli tomonlari. Monieson tomonidan taklif qilingan GE/Mc Kinsey modelining variatsiyasi. Bozorni va tarmoqni jalb etilganligi.
17	Tadbirkorlik faoliyatida biznes-reja tipologiyasi.	Biznes-rejaga qo'yiladigan asosiy talablar. Tadbirkorlik faoliyatida biznes-reja maqsadi. Biznes-reja asosiy tipologiyasi va turlari. Xo'jalik yuritish uchun va kredit olish uchun biznes-reja. Ularning xususiyatlari va asosiy belgilari. Tijorat yoki investitsiya loyihasi uchun to'liq biznes-reja, uning qisqacha xarakteristikasi. Tadbirkorning biznes-rejasi, uning mazmuni va tizimi. Firma tashkiliy tizimi bo'limi uchun biznes-reja. Kredit va grant olish uchun biznes-reja. Uning xususiyati va belgilari. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida mamlakat hududini rivojlantirish uchun biznes-reja. Biznes-reja ishlab chiqish uchun qo'yiladigan umumiy talablar va mazmuni.
18	Biznes-loyiha va biznes-reja ishlab chiqishdagi asosiy bosqichlar.	Asosiy bo'limlarning mazmuni va tuzilishi. Biznes-reja: tavsifi, tuzish usuli. Aniq qo'yilgan maqsad va unga erishishdagi korxona strategiyasi. Xo'jalik yuritish faoliyati uchun biznes-rejaning "klassik" tizimi. Hisobot yilidagi korxona holatining tahlili.

		Biznesni ifodalash. Bozor. Marketing. Ishlab chiqarishni rivojlantirish. Boshqaruv va kadrlar. Moliya. Foyda va zarar. Rejalashtirilayotgan o'zgarishlar. Xo'jalik yuritish faoliyati biznes-rejasini asosiy bo'limlari mazmuni: Biznes-reja bo'limlarining zarurati. Titul varag'i. Kirish qismi. Soha holati tahlili. Loyiha mohiyati. Marketing rejasi. Ishlab chiqarish rejasi. Tashkiliy ishlar rejasi. Xavf-xatarni baholash. Moliyaviy reja. Ishlab chiqarish ustidan nazorat va korxonada biznes-rejani tatbiq etish. Nazoratning an'anaviy yo'nalishlari: zaxiralar nazorati, ishlab chiqarish jarayoni nazorati, sifat nazorati, bozor ulushi va sotuv hajmi nazorati. Investitsion loyiha. Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan
19	Loyiha va biznes-reja ishlab chiquvchi korxona bayoni	Korxonani umumiy bayoni. Faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Sexlarni, asbob-uskunalarni, dastgohlarni joylashtirish. Korxona ishlab chiqarish quvvatini oshirish yoki kamaytirish. Avvalgi va hozirgi faoliyatining asosiy natijalari. Korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlariga holis baho berish. Ishlab chiqarishni tashkil etish. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi. Xomashyo, material va komplekt qismlarini yetkazib beruvchilar. Xomashyo va yetkazib beruvchilar klassifikatsiyasi. Pasportini ichki tuzilishi va ko'rsatkichlari nomi. Dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash tarkibi (DTIH). Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash tarkibi (TIA). Loyihaning TIA asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya loyihasini amalga oshirish. Loyihani amalga oshirish bosqichlari.
20	Marketing rejasi - biznes-rejaning bo'limi sifatida	Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning marketing rejasini ishlab chiqishning mohiyati va mazmuni. Tashqi va ichki tahlil. Marketing operatsiyalari: Tovar taqsimoti, narx belgilash, bozorga siljinish, byudjetlashtirish va dasturlashtirish bayon qilinadi. Quyidagilarni ko'rib

		chiqish va muhokama qilish: marketing general strategiyasi va korxonaning maqsadini; narx siyosatini tanlash, o'tkazish va tovar yetkazib berish shartini; sotuv taktikasini o'tkazish; xizmat ko'rsatish va kafolatlashni; korxonani rivojlantirish rejalarini. Bo'limning asosiy qismi – byudjetlashtirish va dasturlash. Asosiy iste'molchilar haqida ma'lumot berilishi. Tovar taqsimlash kanallari, distribyuterlar, savdo agentlari, kommivoyajerlar va har xil savdo tuzilmalari vakillari. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida qaysi bozorlarga to'g'ridan-to'g'ri chiqish mumkinligi, xaridorlar talabi va ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan tovar sotuvi hajmi aniqlash.
21	Kichik korxonalar faoliyatini yuritishning moliyaviy manbalari va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari	Kichik korxonalar faoliyati (biznesi)ni tashkil etish va yuritish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar manbalari. Kichik korxonalar faoliyati (biznesi)ni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va grantlar asosida moliyalashtirish tartibi. Kichik korxonalar faoliyatini (biznesini) kredit mablag'lari asosida moliyalashtirish tartibi. Kichik korxona ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismlari va mezonlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy (absolyut) va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi. Samaradorlik tushunchasi mohiyati. Ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik tushunchalari. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi o'sishining tarkibiy qismlari. Samaradorlikni o'lchash ko'rsatkichlari tizimi. Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy, absolyut va qiyosiy-iqtisodiy samaradorligi. Xarajatlarni qoplash muddati xarajatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.
22	Kichik korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati	Asosiy fondlar va ularning kichik korxona faoliyatidagi o'rni. Kichik korxonaning aylanma va uzoq muddatli aktivlari. Uzoq muddatli aktivlarning tuzilishi. Asosiy fondlarning turlari, tarkibi va

		ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarish asosiy fondlari. Noishlab chiqarish asosiy fondlari. Asosiy ishlab chiqarish fondlari guruhlari. Asosiy fondlarning aktiv va passiv qismlari. Asosiy fondlarni hisobga olish va rejalashtirish. Asosiy fondlarni baholashning boshlang'ich, qayta tiklanish va qoldiq qiymati. Asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishi. Amortizatsiya ajratmasi. Asosiy fondlarni modernizatsiyalash. Kichik korxonaning ishlab chiqarish quvvati va uni hisoblash usullari. Asosiy fondlardan ekstensiv foydalanish ko'rsatkichlari. Asosiy fondlardan intensiv foydalanish ko'rsatkichlari. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish ko'rsatkichlari. Fondlar qiymatini oshiruvchi omillar. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni oshiruvchi asosiy yo'nalishlar. Kichik korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadalashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.
23	Kichik korxonaning aylanma fondlari va aylanma mablag'lari	Aylanma fondlar va aylanma mablag'lar to'g'risida tushuncha. Aylanma ishlab chiqarish va muomala fondlari. Aylanma fondlarning tarkibi, shakllanish manbalari va foydalanish ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarish zaxiralari. Kelgusi davr xarajatlari. Tugallanmagan ishlab chiqarish va o'zi tayyorlagan yarim tayyor mahsulotlar. Aylanma fondlarni tejashni iqtisodiy ahamiyati. Kichik korxona aylanma fondlar elementlarini tejash. Moddiy resurslarni tejashning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari. Aylanma mablag'lar va ularning samaradorligini oshirish yo'llari. Aylanma mablag'lar tarkibi va strukturasi. Aylanma mablag'larni shakllanish manbalari. Aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. Aylanma mablag'lar normasi.
24	Kichik korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, xarajatlari,	Xarajatlar to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi. Moddiy va mehnat xarajatlari. Tijorat xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlari. Ijtimoiy sug'urta

	foydasi va rentabelligi	ajratmalari. Kichik korxonalarning ishlab chiqarish to'g'risidagi boshqa xarajatlari. Davr xarajatlari. Boshqaruv xarajatlari. Umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa operatsiya xarajatlari. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar. Favqulodda zararlar. Foyda va uni shakllantirish manbalari, foydani taqsimlash tartibi, ko'paytirish yo'llari. Korxona foydasining shakllanish manbalari. Korxona sof foydasining taqsimoti. Korxona foydasini ko'paytirish yo'llari. Rentabellikning iqtisodiy mazmuni va ko'rsatkichlari. Rentabellikning ko'rsatkichlari. Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi. Korxonada sof foydaning shakllanish jarayoni. Hozirgi mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida, O'zbekiston sharoitida foyda va rentabellikka ta'sir qiluvchi omillar.
25	Kichik korxonaning investitsiya faoliyati	Investitsiyalarga oid tushunchalar mazmuni, investitsiya tasnifi va ahamiyati. Moliyaviy va nomoliyaviy investitsiyalar. Investitsiya – moliya bozorining elementidir investitsiyalarning turlari. Investitsiya manbalari va ularning kichik korxonaga qo'yish sohalari. Investitsiya manbalarini shakllantirish. Moliya bozorlarini tasnifi. Pul bozori. Qimmatli qog'ozlar bozori. Sarmoyalar bozori. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi ko'rsatkichlari, ularni aniqlash, baholash va samaradorligini oshirish yo'llari. Kichik korxonaning investitsiya strategiyasi. Investitsion loyiha. Investitsiya loyihasining samaradorligini hisoblash. Investitsiya rentabelligi. Investitsiya oqimini diskontlashtirish.
26	Biznesni baholashning qiyosiy yondashuv usuli	Qiyosiy yondashuvning mazmuni. O'xshash korxonalar tanlovining kriteriyalari. Muhim narx multiplikatorlari va ularning xususiyatlari. Qiyosiy yondashuvining umumiy tavsifnomasi. Analog-korxonalar tanlovining muhim tamoyillari. Soha o'xshashliklari. O'sish istiqbollari. Moliyaviy risk. Menejment sifat darajasi. Narx

		multiplikatorlarining tavsifnomasi. Qiymatning umumiy qiymatini shakllantirish. Qiyosiy yondashuvda matematik usullarni qo'llash. Analog kompaniyalar uslubi. Bitim yoki sotuv usuli. Soha koeffitsiyentlar uslubi. Analog korxona usuli orqali baholashning bosqichlari. Bozor va moliyaviy informatsiyadan foydalanish. Baho-foйда multiplikatori. Baho-dividendlar multiplikatori.
27	Biznesni baholashning xarajatli yondashuv usuli	Sof aktivlar uslubi. Ishlab chiqarish materiallar zaxirasini baholash usullari. Ishlab chiqaruvchi ko'chmas mulk bahosi. Asbob va uskunalar bahosi. Nomoddiy aktivlar bahosi. Moliyaviy qo'yilmalar bahosi. Likvidatsion (tugatish) qiymat usuli. Korxona ko'chmas mulkining asoslangan bozor qiymatini aniqlash. Daromadlarni kapitallashtirish usuli. Kumulyativ qurish uslubi. Mashina va asbob-uskunalarining bozor qiymatini baholash. Nomoddiy aktivlar qiymatini baholash. Tovar belgisi qiymatini baholash. Moliyaviy qo'yilmalarning bozor qiymatini baholash. Kapitalizatsiya foiz stavkasini kapital xarajatlarni hisobga olib aniqlash uslubi. Bevosita kapitalizatsiya uslubi. Yalpi daromad multiplikatori.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. – 76 bet
2. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. 2012-yil 5-fevral, O'RQ- 328-son.
3. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni. 2012-yil 26-aprel, O'RQ-328-son.
4. O'zbekiston Respublikasining “Raqobat to'g'risida”gi Qonuni. 2012-yil 6-yanvar, O'RQ-319-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida. 2021 yil 15 sentyabr, PF-6314-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida. 2021-yil 7-sentyabr, PF-6307-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2021 yil 5 oktyabr, PF-4848-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2021-yil 21-aprel, PQ-5087-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr. – <https://uza.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr. – <https://uza.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 25-yanvar. – <https://uza.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. – <https://uza.uz>
13. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish eng muhim vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda soʻzlagan nutqi. 2021-yil 20-avgust. - <https://uza.uz>

14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. T.:Oʻzbekiston, 2017. -104 b.

15. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : Oʻzbekiston, 2016. - 56 b.

16. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017. – 48 b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “Oʻzbekiston”, 2017. – 488 b.

Qoʻshimcha adabiyotlar.

18. Investment Appraisal: Methods and Models - Uwe Götze, Deryl Northcott, Peter Schuster – 2015.

19. Dr. Jay A.Dewhurst. An Introduction to Business and Business Planning 1st edition 2014

20. Robert Blackburn. Small Business and Entrepreneurship. Sage Publications Associate Dean Research, London 2008.

21. Qosimova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. (Darslik). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 328 bet.

22. Tursunov R.T., Pulatov N.T., Djalalova I.A, Biznes strategiyasi. Oquv qollanma. T.: Iqtisodiyot, 2016. – 312 b.

23. Muratov R.S, Djalalova I.A. Oripov S.SH. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. - T.: TDIU, 2013. - 500 b.

24. Asaul A. N., Starinskiy V. N., Starovoytov M. K., Faltinskiy R. A.Otsenka organizatsii stoimosti (predpriyatiya, biznesa). Uchebnik Sankt-Peterburg, Nauka, 2014. – 481 s.

25. Juraev A.S., Xujamqulov D.Yu., Mamatov S. Investitsiya loyihalari tahlili. Darslik. T.:TMI, 2006. -234 s.

26. Kantor Y.L. i dr. Ekonomika predpriyatiya. – SPB: Piter, 2009. – 224 bet

27. Matsusita K. Missiya biznesa.- 3-e izd.-M.: Alʼpina, 2011. -98 s.

Internet manbalar

1. www.gov.uz – Oʻzbekiston Respublikasi xukumat portali.

2. www.lex.uz – Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi.

3. www.economics.ru
4. www.chamber.uz
5. www.ziyonet.uz
6. [http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com / best-graduate-schools / top-humanities-schools/economics-rankings](http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com/best-graduate-schools/top-humanities-schools/economics-rankings)
7. www.ereport.ru
8. www.stplan.ru
9. www.catback.ru